ISSN: 2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ

ТАДҚИҚОТЛАР ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛИ

1-СОН

ЯНВАРЬ, 2023

IMFAKTOR PAGES

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
НОМЕР-1

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ

1-СОН

FUNDAMENTAL STUDIES
SCIENTIFIC-PRACTICAL JOURNAL
VOLUME-1

ТОШКЕНТ - 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР
илмий-амалий журнали
№ 1 (2023) DOI http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2023-1

Бош муҳаррир:
Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:
Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:
Кенжабаев А. – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор
Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент
Саттаров О. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент
Исҳоқов М. – тарих фанлари доктори, профессор
Абдуҳалимов Б. – тарих фанлари доктори, профессор
Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент
Мадумаров Т. – юридик фанлар доктори, профессор
Қодиров Б. – юридик фанлар доктори, доцент
Қиличев Х. – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори
Баҳодиров Р. – фалсафа фанлари доктори, профессор
Саифназаров И. – фалсафа фанлари доктори, профессор
Идиров У. – сиёсий фанлар доктори, профессор
Абдуллаев Н. – сиёсий фанлар номзоди, доцент
Сатторов А. – сиёсий фанлар номзоди, доцент
Умаров А. – социология фанлари доктори, профессор
Матибаев Т. – социология фанлари доктори, профессор
Каюмов К. – социология фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни **№ 054837**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: https://imfaktor.uz, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.
Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.
© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

IMFAKTOR ©
ilmiy nashrlar portali
https://imfaktor.uz

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛИ
1-СОН | ЯНВАРЬ, 2023

Иқтисодиёт (08.00.00) фанлари

RAXMATOV Alisher Azimovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Иқтибос келтириш учун (for citation, для цитирования)**: RAXMATOV A.A.** Aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishning asosiy yo‘nalishlari // Фундаментал тадқиқотлар. № 1 (2023) Б. 135-140.

https://doi.org/10.5281/zenodo.7585526

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada barqaror iqtisodiy rivojlanishni saqlab qolgan holda mamlakat aholisi daromadini oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini rag‘batlantirib iqtisodiy faol qatlamga o‘tkazish, mamlakat aholisida kam ta’minlanganlarning ulushi muhokama qilingan. Shu asnoda aholi daromadini oshirib kambag‘allik darajasini qisqartirish uchun xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, aholi turmush darajasi, tadbirkorlik faoliyati, aholi bandligi, kambag‘allik darajasi, kam ta’minlangan aholi, daromad, iqtisodiy o‘sish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье при сохранении стабильного экономического развития рассматриваются увеличение доходов населения страны, стимулирование населения, нуждающегося в социальной защите, к экономической активности, доля малоимущих в населении страны. При этом были даны выводы и предложения по повышению доходов населения и снижению уровня бедности.

Ключевые слова: бедность, уровень жизни населения, предпринимательская деятельность, занятость населения, уровень бедности, бедное население, доходы, экономический рост.

ANNOTATION

In this article, while maintaining stable economic development, increasing the income of the country's population, encouraging the population in need of social protection to become economically active, and the share of the poor in the country's population are discussed. At the same time, conclusions and proposals were given to increase the income of the population and reduce the level of poverty.

Key words: poverty, standard of living of the population, entrepreneurial activity, population employment, poverty level, poor population, income, economic growth.

Iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirishda aholini ish bilan bandligi muhim omil hisoblanadi. Aholi turmush darajasi, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun qilinadigan sarflar aholini ish bilan ta’minlanishiga bog‘liqdir. Shuning uchun aholini ish bilan bandligini ta’minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida alohida ahamiyatga egadir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mehnat bozorida ishsizlarning 90% ga yaqini munosib ishga joylashishga ko‘maklashish yuzasidan muhtojlik sezmoqda. Munosib ish o‘rinlari – bu ishchilarga qiziqarli va qo‘lidan keladigan ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan maqbul bo‘lgan ish o‘rinlaridir. Munosib ish joyiga ega bo‘lish uchun mehnat bozorida ishchi kuchi ancha raqobatbardosh bo‘lishi zarur.

Sh. Shodmonov (2017) Respublikamiz iqtisodiyotining yanada rivojlanib borishi va aholining turli faoliyat turlari bilan shug‘ullanishiga keng yo‘l ochib berilganligi sababli aholining pul daromadlari yildan-yilga oshib borishi haqida so‘z yuritgan [1].

M.M. Muxammedov xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy salohiyatini hamda ushbu sohaning aholi turmush darajasini shakllantirishdagi rolini baholashda sof xizmatlar ko‘rsatkichidan foydalanish lozimligini ta’kidlaydi [2].

E.A. Razomasovaning taklif etgan ko‘rsatkichlari sohada band bo‘lgan mehnat resurslaridan qanday foydalanayotganligi va sohaga qancha miqdorda investitsiya sarflanayotganligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichlar yordamida xizmat ko‘rsatish sohasining qanday rivojlanayotganligini aniqlash mumkin [3].

Har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va ijtimoiy siyosati aholisining turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan biri kambag‘allik darajasi bilan bog‘liq. Ushbu ko‘rsatkichni qisqartirish borasida samarador mexanizmlarni qo‘llash, oqilona siyosat olib borish doimiy dolzarb hisoblangan. Mazkur muammoni tartibga solish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi: Jumladan, 2020 yil 26 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4653- sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq O‘zbekiston Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi sifatida qayta tashkil etildi [4].

Hozirda mazkur yo‘nalishda tizimli, ya’ni, aholi kambag‘al qatlamining doimiy daromad manbaini yaratish; davr talabidan kelib chiqib inson kapitalini rivojlantirish; to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash kabi ta’sirchan mexanizmlar orqali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2021-2030 yillarda O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi ishlab chiqilib, mazkur strategiya ikki bosqichda – qisqa va o‘rta (2021-2025 yy.) hamda uzoq (2026-2030 yy.) muddatlarda amalga oshirilishi belgilanmoqda. Ushbu bosqichlarda nazarda tutilgan masalalar doirasida quyidagi maqsadli indikatorlarga erishish belgilangan:

– kambag‘al aholining ish bilan bandligiga to‘liq erishish, bunda bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali ehtiyojmand va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan fuqarolar uchun ish o‘rinlarini kvotalash;

– o‘zini o‘zi band qilish istagida bo‘lgan kambag‘al aholi qatlamlarini ro‘yxatga olish, faoliyatini boshlash, mehnat qurollari sotib olishi va boshqa maqsadlar uchun subsidiyalar ajratish;

– kambag‘al aholi qatlamini kasb-hunar, xorijiy til va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish hamda tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha mikrokreditlar ajratish orqali faoliyatini boshlashi yordamida kambag‘al aholi bandligini ta’minlash [5].

Mazkur belgilangan vazifalarning ijrosi natijasida 1,9 mln nafar fuqarolarning daromadli mehnat bilan bandligi ta’minlandi, 341 ming nafar fuqarolarga ijara asosida yer ajratildi, 267 mingta loyihaga 6,4 trln so‘m imtiyozli kredit va 35 mingdan ortiq ishsizlarga 112 mlrd so‘m subsidiyalar ajratildi, 218 ming nafar aholi kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitildi, 19 mingta “mahallabay” mikroloyihalar ishga tushirilib, 78 mingta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-29-son qarorga muvofiq mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyati tashkil etildi, hamda yo‘l xaritasi ham belgilab olindi.

2022-yil 25-maydagi “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-258-son qaroriga asosan 97,8 ming ehtiyojmand oilalarga 6,0 ming tonna bepul un hamda 11,1 mlrd so‘m naqd pul mablag‘lari tarqatildi. Bundan tashqari “Aholini oziq-ovqat jumladan, chorva va parrandachilik mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash chora-tadbirlari” to‘g‘risida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlarga muvofiq 264,7 ming ehtiyojmand oilaga takroriy ekin uchun 88,5 ming gektar yer hamda 154,4 ming ehtiyojmand oilaga 28,6 ming tonna bug‘doy klaster va fermer xo‘jaliklari tomonidan bepul tarqatildi.[6].

O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allik darajasini kamaytish maqsadida “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” kabi ro‘yxatlar ham shakillantirilib, qishloq hududlari aholisining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga subsidiyalar va kam foizli kreditlar berilmoqda. Bu kabi sayi harakatlar zamirida mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirib qishloq hududlari aholisini xususiy hamda yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullantirish orqali aholi daromadlarini oshirish ko‘zda tutilgan. Quyidagi jadvalda mamlakat kam ta’minlangan aholisini umumiy aholidagi ulushini yillar kesimida ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida kam ta’minlangan aholi ulushi [7]

№	**Ko‘rsatkichlar nomi***	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
1	Kam ta’minlangan aholi ulushi	16,0	15,0	14,1	13,3	12,8	12,3	11,9	11,4	11,0	11,5	-
2	Kambag'allik darajasi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	17,0

**Jadvalda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi malumotlaridan foydalanildi*

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki kam ta’minlanganlar ko‘rsatkichi 2011-2020-yillar oralig‘ida sezilarli darajada pasaygan, kambag‘allik darajasi esa 2021-yilda 17,0 foizni tashkil qilmoqda.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekistonda YaIM hajmi 627,5 trln so‘mni tashkil etib. ushbu ko’rsatkich 2021 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 5,8 foizga oshgan. Shuningdek, YaIMda kichik va o‘rta biznesning ulushi 2022-yilning noyabr oyi holatiga 52,8 fozini tashkil etgan [8].

Ushbu ko‘rsatkichlarni yanada yaxshilash maqsadida mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, sohada ortiqcha ma’muriy tartib taomillarni qisqartirishga, tadbirkorlik subyektlariga qulay ishbilarmonlik hamda investitsiyaviy muhitni yaratishga qaratilgan huquqiy islohotlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan joriy yilning 9-noyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 244-sonli qarori ham tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida qabul qilingan. Qaroroga asosan davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini faqatgina, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatdan o‘tkazish, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha litsenziyalash, ruxsat berish hamda xabardor qilish, texnik jihatdan tartibga solish, ta’rif va nota’rif tartibga solish va boshqa vositalar orqali tartibga solish belgilandi.

Bu esa, tadbirkorlik faoliyatiga davlatning ortiqcha aralashuvini cheklashga qaratilgan. Shuningdek, qarorga asosan normativ huquqiy yoki texnik jihatdan tartibga solish sohasida normativ huquqiy hujjat hisoblanmagan hujjatlarda belgilangan tartibga solish vositalari huquqiy oqibat keltirib chiqarmasligi belgilab o‘tildi. Ushbu qoidaning amalga kiritilishi tadbirkorlik faoliyatini faqatgina belgilangan tartibda qabul qilingan normative huquqiy hujjatlar orqali tartibga solishga va shu orqali tadbirkorlik faoliyatining, ular erkinligining qonunchilik hujjatlari bilan kafolatlanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qarorning 3-bandiga asosan 2023-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlik subyektining ustav kapitalini kamaytirish haqida qaror qabul qilinganda kreditorlarni yozma xabardor qilish hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon berish, elektr energiyasini shartnomada belgilanganidan ortiq iste'mol qilgan tadbikorlik subyektlariga elektr energiyasini yetkazib berishni to'xtatib qo'yish, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan xodimlarni Yagona milliy mehnat tizimi orqali soliq organlarida alohida hisobga qo'yish bekor qilinishi belgilab o'tildi [9].

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda O'zbekiston mehnat bozorida 13,7 mln kishi band bo'lib, ulardan 5,8 mln kishi rasmiy va 7,9 mln kishi norasmiy sektorda, shu jumladan, 2,6 mln kishi mehnat migranti sifatida mehnat qilmoqda [10].

Yuqoridagilardan tashqari, prezident qaroriga asosan tadbirkorlik faoliyatida yana bir qator erkinliklar, afzalliklar belgilangan bo'lib mazkur chora-tadbirlar mamlakatda tadbirkorlik muhitining ham sifat ham son jihatidan ortishiga, pirovard natijada aholi daromadlarining, ularning turmush farovonligining, YaIM hajmining ortishiga xizmat qilishi shubxasiz.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bozor munosabatlarining chuqurlashishi bosqichida aholining turmush darajasi va daromadlarning tabaqalanishi markaziy muammo bo'lib qoladi. Ularning hal qilinishiga ko'p jihatdan keyingi tub o'zgarishlar yo'nalishi va sur'atlari hamda oqibat natijada jamiyatdagi siyosiy barqarorlik bog'liq bo'ladi. O'z navbatida. bu muammolarning hal qilinishi daromadlarning aniq ishlab chiqilgan siyosatini talab qiladi. Insonning o'ziga, uining hayotdagi o'rniga, inson kapitali va mehnat imkoniyatlariga malaka, tajriba mashg'ulot turi, lavozim maqomi, mehnat xarajatlari va natijalariga, kasb va mansabda o'sish inavjudligiga, sarmoyaning uning istalgan ko'rinishida (ta'lim, kasb, moliyaviy) mavjudligiga bogliq. Yo'qoridagi xulosadan kelib chiqib quyidagi takliflarni keltirib utdik:

– kambag'al va ishsizlarni kasb hunarga va tadbirkorlikka o'qitishning yangi tizimini joriy qilish;

– ularni kasb-hunarga o'qitishda xususiy sektor bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

– kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qitish jarayonlarini tashkil etish;

– ehtiyojmand aholi va nogironlar ish bilan bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha choralarni amalga oshirish maqsadga muofiq bo'ladi.

IQTIBOSLAR

[1]. Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 660 bet.

[2-3] M.M.Muxammedov va E.A.Razomasovalarning ilmiy izlanishlari.

[4-5-6]. Do‘stov Baxodir Tashpulatovich. Maqola. "KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA MAQSADLI IJTIMOIY DASTURLAR" Ta’lim fidoyilari, vol. 04-11, 2022, pp. 28-31.

[7]**.** O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi malumotlari.

[8-9]. D.Turdaliyev (2022). Maqola. TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH AHOLI DAROMADINI RIVOJLANTIRISH YALPI ICHKI MAHSULOT HAMDA YALPI MILLIY DAROMAD OSHISHINING ASOSIY OMILIDIR. Ta’lim fidoyilari, 07-11 , 28-29.

[10]. Teshabaeva, Odina Nasridinovna, & Muydinov, Muhammadxon Yahyo O‘g‘li (2022). O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TA’MINLASHDA INVESTITSIYALARNING ROLI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (5-2), 526-537.